

**BOLANI TA'LIM JARAYONIGA TAYYORLASHDA OILA, MAKTAB VA MAHALLA
HAMKORLIGINING PSIXOLOGIK OMILLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19187888>

Abdullayeva Aropatxon Rustamovna

Farg'ona davlat universiteti

psixologiya kafedrasi katta o'qituvshi

Annotatsiya

Mazkur maqolada oila muhitini bola xayotida yetakchi omil ekanligi, oiladagi er-xotin munosabatarini va sog'lom muhitni bola ruhiy salomatligiga ta'siri, bolaning ruhiy salomatligi mezonlar orqali namoyon bo'lishi borasida fikrlar berilgan

Kalit so'zlar: *oila, Konstitutsiya, salomatlik, psixologiya, ijtimoiy, modda, rol, madaniyat, tarbiya aqliy.*

Аннотация

В данной статье представлены идеи о важности семейной среды как ведущего фактора в жизни ребенка, о влиянии супружеских отношений в семье и здоровой среды на психическое здоровье ребенка, а также о проявлении психического здоровья ребенка на основе критериев.

Ключевые слова: *семья, конституция, здоровье, психология, социальные, материальные, роль, культура, образование, психическое здоровье.*

Annotation

This article presents ideas on the importance of the family environment as a leading factor in a child's life, the impact of marital relations in the family and a healthy environment on the child's mental health, and the manifestation of the child's mental health through criteria.

Keywords: *family, constitution, health, psychology, social, material, role, culture, education, mental.*

KIRISH

Bolani komil etib shakllantirishga zamin yaratishda oilaning o'rni va roli beqiyosdir. Oilada bolani komil inson qilib tarbiyalashga zamin yaratish ota-onalar zimmasiga yuklatilgan. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 64-moddasida «Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdir» va O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 73 moddasi «Ota-ona o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart. Ota-ona o'z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o'z bolalarining sog'ligi, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shart. Ota ona o'z bolalarining qonun hujjatlarida belgilangan zarur darajada ta'lim olishni ta'minlashi shart», deb belgilab ko'rsatilib, ota onalarga ijtimoiy psixologik talablar qo'yadi. Oila jamiyatning asosiy bo'g'inini tashkil qiladi, oila tarbiyasini to'g'ri tashkil qilmay, oilalarning barqarorligini va mustahkam bo'lishini hamda jamiyatning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash mumkin emas. Shu nuqtai nazardan yondashganda oila

sharoitida ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini tashkil qilish, to'ldirib borish va takomillashtirish bag'oyat muhim oilaviy pedagogik muammolardandir.¹⁴

Oilada bolalarni komil inson etib shakllantirish uchun ularning aqliy tarbiyasini maqsadli tashkil etish pedagogika va psixologiya mutaxassislari, ota-onalarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Chunki, aqliy tarbiyani to'g'ri tashkil qilish tarbiyaning boshqa tarkibiy qismlarining muvaffaqiyatli ta'minlanishiga xizmat qiladi. Bolaga aqliy tarbiya bermay turib uni oila va ijtimoiy xayotga tayyorlab bo'lmaydi. Oilada bolalarning bilimli bo'lishi haqida O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 73-moddasida «Ota-onalar bolalarining bilim olishlari uchun mas'uldirlar»¹⁵ deb belgilangan. Demak, oilada ota-onalar o'z farzandlarining umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim olishlari uchun g'amxo'rlik ko'rsatishlari va qulay shart-sharoit yaratib berishlari lozim. Shunday sharoitni yaratishda oilada sog'lom muhit asosiy omil hisoblanib, bolani ruhiy salomatligini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ruhiy salomatlik – bu, shaxsning nisbatan barqaror psixologik holati bo'lib, unda inson o'zini, atrofdagilarni va jamiyatni adekvat idrok etadi, hissiy, shaxsiy va ijtimoiy jihatdan muvozanatda bo'ladi. Ruhii jihatdan sog'lom bola o'z qobiliyatlari va salohiyatidan samarali foydalana oladi, hayot talablariga moslashadi, ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etadi hamda o'z xulq-atvorini nazorat qila oladi. Bunday holat bolaning shaxs sifatida yaxlitligi, ichki tinchligi va psixologik barqarorligida namoyon bo'ladi.

Ruhiy salomatlik odatda ikki asosiy yo'nalishda o'rganiladi:

1. **Nazariy-ilmii yo'nalish** – shaxs, ehtiyoj va motivlar, ruhiy kasalliklarning sabablari va belgilari, psixologik himoya mexanizmlari, moslashuv jarayonlari, shuningdek, psixologik ongni shakllantirish va noto'g'ri tushunchalarni tuzatish masalalarini qamrab oladi.

2. **Amaliy yo'nalish** – ruhiy buzilishlarning oldini olish, ularni tashxislash, psixologik va psixoterapevtik yordam ko'rsatish bilan bog'liq.

Oila bola hayotining eng muhim ijtimoiy instituti hisoblanadi. Aynan oila bolaning birlamchi ehtiyojlarini – xavfsizlik, mehr, g'amxo'rlik, oziq-ovqat va boshpana bilan ta'minlaydi. Oila tomonidan yaratilgan qo'llab-quvvatlovchi muhit bo'lmasa, bolaning ruhiy barqarorligi va baxtli hayoti jiddiy xavf ostida qoladi.

Bolaning ruhiy salomatligi oila bilan chambarchas bog'liq bo'lib, oiladagi munosabatlar sifati uning hissiy holati, o'ziga bo'lgan ishonchi va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Iliq, mehrga boy va barqaror oilaviy muhit bolaga xavfsizlik hissini beradi, uning shaxs sifatida sog'lom shakllanishiga zamin yaratadi.

Ota-ona va boshqa oila a'zolari bilan o'rnatilgan hissiy aloqalar bolaning ichki dunyosini boyitadi, mustahkam psixologik xotiralar shakllanishiga yordam beradi. Ushbu tajribalar kelajakda bolaning stressga bardoshliligi, muammolarni hal qilish qobiliyati va shaxslararo munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Bolalarning dastlabki yillarida ularni turli oilaviy vaziyatlar bilan tanishtirish muhim hisoblanadi. Masalan, oilaviy mavzudagi filmlar va ko'rsatuvlar, turli ijtimoiy kelib chiqishga ega tengdoshlar bilan muloqot, hayotiy muammolar (ajralish, yo'qotish, kasallik) bilan turli oilalarning qanday munosabatda bo'lishini kuzatish bolalarning psixologik dunyoqarashini kengaytiradi. Bu jarayon shartli ravishda “oilaviy psixologik tayyorgarlik” vazifasini bajaradi.

¹⁴ Sh.Usanov Sh.Axmedova OILADA BOLA TARBIYASINING TARKIBIY QISMLARI Uslubiy qo'llanma. Samarqand – 2017

¹⁵ Ўзбекистон Республикаси оила кодекси. Тошкент, «Адолат», 1912, 46-бет,

Shu bilan birga, oila ba'zan bola uchun stress manbai ham bo'lishi mumkin. Ota-onalar o'rtasidagi nizolar, e'tiborsizlik, haddan tashqari talabchanlik yoki befarqlik bolada xavotir, agressiya va ruhiy beqarorlikni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, ota-onalar tomonidan bolaning ruhiy holatiga yetarlicha e'tibor berilmasligi uning psixologik muammolarini chuqurlashtiradi.

Bolaning ruhiy salomatligini mustahkamlashda turli psixologik aralashuvlar muhim ahamiyatga ega. Jumladan, kognitiv-xulq-atvor terapiyasi (CBT) va oilaviy terapiya boladagi salbiy fikrlar, hissiy buzilishlar va xulq-atvor muammolarini kamaytirishda samarali hisoblanadi. Biroq, ushbu usullarning natijadorligi asosan oiladagi munosabatlar sifatiga bog'liq bo'ladi.

Bolaning ruhiy salomatligi quyidagi mezonlar orqali namoyon bo'ladi:

- psixologik funksiyalar o'rtasidagi izchillik;
- hissiy muvozanat va barqarorlik;
- aqliy faoliyatning yetarli darajada rivojlanganligi;
- ijtimoiy moslashuvchanlik;
- shaxsiy energiya va yutuqlar o'rtasidagi uyg'unlik.

Shaxsning barcha psixik jarayonlari o'zaro bog'liq bo'lgani sababli, ulardan birida yuzaga kelgan buzilish butun shaxs rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ruhiy salomatlikni saqlash — shaxsning yaxlitligi va jamiyat talablariga mos ravishda rivojlanishini ta'minlaydi.

Ruhiy salomatlik tushunchasi psixologiya fanida turli ilmiy maktablar tomonidan turlicha talqin qilingan. Zigmund Freyd ruhiy salomatlikni shaxs ichki ziddiyatlarining muvozanati sifatida ko'rib chiqqan. Uning fikricha, bolalik davrida ota-ona bilan munosabatlar “Men”, “U” va “Super-Men” tuzilmalari shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Oiladagi konfliktlar keyinchalik nevrotik buzilishlar manbai bo'lishi mumkin deb hisoblagan.

Karl Yung oilani shaxs arxetiplarining faollashuvi uchun muhim muhit sifatida talqin qilgan. Uning nazariyasiga ko'ra, ota-ona obrazlari bolaning kollektiv ongsizligida chuqur iz qoldiradi. Bunda maktabgacha yosh davri muhim davr hisoblanadi.

Lev Semenovich Vigodskiy bolaning ruhiy rivojlanishini ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liq holda o'rgangan. Uning madaniy-tarixiy nazariyasiga ko'ra, barcha oliy psixik funksiyalar (nutq, tafakkur, xotira) avval ijtimoiy faoliyatda, so'ngra individual darajada shakllanadi. Oila esa bolaning birinchi ijtimoiy muhiti bo'lib, ruhiy salomatlikning poydevori aynan shu yerda yaratiladi.

Vygodskiy ta'kidlagan “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasi ota-onaning bola rivojlanishidagi faol rolini ilmiy asoslab beradi.

Aleksandr Romanovich Luriya bolalar ruhiy salomatligini miya faoliyati bilan bog'liq holda o'rganib, neyropsixologiya faniga asos solgan. U psixik funksiyalar tizimli xarakterga ega ekanini isbotlagan. Luriya fikricha, oiladagi stress, emotsional beqarorlik bolaning miya funksional bloklari faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Luriya shuningdek, mahalliy miya shikastlanishlari fonida shaxs va xulq-atvordagi o'zgarishlarni o'rganib, oilaviy qo'llab-quvvatlash reabilitatsiyada muhim ekanini ko'rsatgan.

Jon Bowlby tomonidan ishlab chiqilgan attachment (bog'lanish) nazariyasi bolaning ruhiy salomatligi oiladagi emotsional yaqinlik bilan bevosita bog'liq ekanini ilmiy asoslab berdi. Bowlby bolalikda onaga xavfsiz bog'lanish shakllanmasa, shaxsda xavotir, depressiya va ijtimoiy moslashuv muammolari yuzaga kelishini ko'rsatgan.

Meriy Ainsworth esa “begona vaziyat” metodi orqali xavfsiz, xavotirli va befarq bog'lanish turlarini empirik jihatdan isbotlagan. Va bu davrda oilaviy bola va ota-ona bilan bog'lanish sifatli bo'lsa maktabgacha yosh davrida ruhiy salomatligi barqaror bo'ladi.

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

Erik Erikson bolalik va o'smirlilik davrida ruhiy salomatlikning asosiy mezonlarini aniqlagan, bunda oilaning roli va ahamiyati haqida gapiradi. Unga ko'ra, har bir rivojlanish bosqichi muayyan psixologik inqiroz bilan kechadi. Agar oila bolaning ehtiyojlariga mos munosabat bildirmasa, salbiy shaxsiy sifatlar shakllanadi (ishonchsizlik, tashabbussizlik, past o'zini baholash).

Abraham Maslou ruhiy salomatlikni inson ehtiyojlari ierarxiyasi bilan bog'lagan. Unga ko'ra, bolaning xavfsizlik, muhabbat va hurmat ehtiyojlari oilada qondirilmasa, yuqori darajadagi ruhiy salomatlikka erishib bo'lmaydi.

Murray Boven oilani yagona tizim sifatida ko'rib, oiladagi emotsional muvozanat buzilishi bolaning ruhiy holatiga bevosita ta'sir qilishini isbotlagan.

Salvador Minuchin esa oilaviy struktura nazariyasini ishlab chiqib, chegaralarning buzilishi bolalarda psixologik muammolarni keltirib chiqarishini ko'rsatgan.

Diana Baumrind ota-onalik tarbiya uslublarini (avtoritar, liberal, demokratik) ilmiy tasniflab, demokratik uslub bolaning ruhiy salomatligi uchun eng qulay ekanini empirik tadqiqotlar orqali asoslab bergan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bolaning ruhiy salomatligi masalasi psixologiya fanining deyarli barcha yo'nalishlarida markaziy o'rin egallaydi. Klassik va zamonaviy olimlar ishlari oilaning bolaning psixik rivojlanishidagi yetakchi rolini bir ovozdan tasdiqlaydi. Oila — bu nafaqat biologik, balki kuchli psixologik va ijtimoiy institut bo'lib, bolaning ruhiy salomatligi aynan shu muhitda shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston, 2010. Konstitutsiyasi. – Toshkent:
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi: (2012-yil 1-maygacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan) – Toshkent: «Adolat», 2012 y. – 192-b.
3. Odam va uning salomatligi. O'qituvchi matbaa ijodiy uy. Toshkent 2006. 3-b.
4. Изард К.Э. Психология эмоций. – СПб. Питер, 1999.
5. Ibodullayev Z. "Tibbiyot psixologiyasi". Toshkent 2009. Yangi asr avlodi.